

## O‘SMIRLIK DAVRIDA INTERNET TARMOG‘IGA TOBELIK

Andijon shahor 40-umumiy o‘rta ta’lim  
maktabi kadrlar bo‘yicha menejer Asqarova Oybachin

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o‘z kelayotgan o‘smirlar o‘rtasida internet tarmog‘ida no‘g‘ri foydalanish o‘smirlar tarbiyasining psixologik jihatlari, ularning ma’naviy-xulqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi omillardan biri bo‘lmish ijtimoiy tarmoqning psixologik jihatlari haqida so‘z yuritildi.

**Kalit so‘zlar:** O‘smirlik davri, ma’naviy tarbiya, ijtimoiy tarmoq virtual olam kibersport.

Bugungi axborot tasrida dunyoning bir nuqtasida yuz berayotgan voqea va hodisalar to‘g‘risida boshqa bir nuqtada turib xabardor bo‘lish mumkinligi hech kimga sir emas. Bu esa dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlarning yanada globallashtiruviga imkon yaratib bermoqda. Axborot asrida yoshlar ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi bu kabi tashqi va ichki omillar oqibatida, hali o‘z imkoniyatlarini to‘liq anglab yetmagan yosh avlod o‘rtasida noxush xolatlarining bo‘lib turganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni uchratamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” da keltirib o‘tilgan qator yo‘nalishlari doirasining to‘rtinchi ya’ni “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” ning to‘rtinchi bandida ham ta’lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Chunonchi, kompyuter texnikasi va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko‘rish kabi muhim ko‘rsatkichlar berilgan. Bunga yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surildi. Ushbu besh tashabbusning uchinchi aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrini keltirib o‘tmoqchimiz: “Tarbiya – Pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdir”.

Erta o‘smirlik davrida shaxsiyat rivojlanishining shakllanish darajasi va ularning keyingi rivojlanishi ko‘p jihatdan shaxsning hayot yo‘lini belgilaydi, shaxsiyatning yangi shakllarining paydo bo‘lishi uchun asosdir. O‘yin kompyuteriga qaramlikning yosh o‘smirning aqliy va shaxsiy rivojlanishiga ta’siri muammosi yetarlicha o‘rganilmagan. Psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yosh o‘smirlik davrida kompyuter o‘yinlariga qaramlikning xususiyatlarini aniqlaydigan psixologik omillar, shartlar va mexanizmlar masalasi

yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Zamonaviy bolalar kompyuter o‘yinlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o‘ziga, ulg‘aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me’yori bo‘lmog‘i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba’zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo‘lib qoladilar. Bolalar va o‘smirlar Internet tarmog‘ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo‘lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin. Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan bola va o‘smirni o‘ziga ko‘proq jalb etadi. Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg‘onishi barchaga ma’lum. O‘smirlar tarmoqdagi nosog‘lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada

qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e’tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas. Shu sababdan kattalar farzand tug‘ilgan kundan boshlab ulariga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o’tkir uchli narsalarga tegish mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, ularda axborotlardan to’g’ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur. Albatta, Internet tarmog’i manbalari zamonamiz o’smirlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlari ko’ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta’sir ko’rsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Yaqindagina ota-onalar bolalarning kompyuter o’yinlariga berilib, ularga bog’lanib qolishlari xavfidan cho’chib, oldini olishga harakat qilgan bo’lsalar, hozirgi vaqtda bu xavfga yana ijtimoiy tarmoqlar xavfi ham qo’shildi. Bolalar va o’smirlarning hovli va ko’chalardagi muloqotlari hozirda haqiqiy hayotdan asosan, aynan, cheti- chegarasi yo’q ijtimoiy tarmoqlarga ko’chdi. Mazkur muloqotlar bolalarga shunisi bilan ham qiziqroqki, avvalo, tarmoqda o’zlariga ko’proq «do’st» orttirish imkoni mavjud. Tarmoqda muloqot qilarkan, bolalar o’zlarini omadli bola qilib ko’rsata oladilar. O’zgaralar rovida o’zlarini taqdim etib, turli yolg’on dunyolarga berilib ketadilar. Uyatchang va tortinchoq bolalar uchun ehtimol tarmoqdagi muloqotlarning foydali jihatlari bordir, vaqti kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar o’z samarasini berishi ham mumkin.

Shunday ekan ma’naviy tarbiyasi yuzasidan taklif etuvchi muayyan axloqiy fazilatlar yoshlarda kelajakka nisbatan ishonch hislarini to’g’ri shakllanishida va ularning barkamol bo’lib unib-o’sishida asosiy o’rinlardan birini egallaydi. O’sib borayotgan shaxsning ma’naviy tarbiyasini shakllantirish muammosi ko’p qirrali bo’lganligi uchun, ushbu tushunchani din psixologiyasi, pedagogik psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya kabi psixologiyaning turli tarmoqlari o’rganib kelmoqda.

“Shaxsning ichki ma’naviy dunyosi ma’naviy ehtyoj, ma’naviy qiziqish va faoliyat, ma’naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iboratdir.” Ko’pgina psixologlar inson ma’naviy tarbiyasining asosini hissiyot, iroda, hayol, motivlar, bilimlar va shu kabi bir qator xususiyatlaridan iborat deb bilishadi. Shu o’rinda yoshlar hayotida yuqoridagi barcha xususiyatlarni birlashtirib turadigan yetakchi va sog’lom tarbiyaning asosi nimada degan savolga javob berish muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, kompyuter o’yinlariga qaramlik fenomenini o’rganish o’smirlik davrida, o’z-o’zini bilish va o’z taqdirini o’zi belgilash zarurati paydo bo’lganda, tengdoshlari va kattalar bilan shaxslararo muloqot jadal shakllangan, mantiqiy va nazariy fikrlash rivojlanayotganda alohida ahamiyatga ega, sifat o’zgarishlar tengdoshlarni baholashda, shuningdek, kattalar bilan munosabatlarda namoyon bo’ladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, jamiyatimizning katta va kichik a’zolarida ayniqsa, yoshlar onggida ma’naviy tarbiyani shakllantirishda milliy va ma’naviy qadriyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyoti keng dunyoqarashli, qobiliyatli, iste’dodli kadrlar orqali yuz beradi. Yoshlar dunyoqarashining yuksalishi natijasida ularning o’z kuchi, imkoniyati bilan ozod va obod vatan, erkinva farovon hayot, demokratik, fuqarolik jamiyati qurishga bo’lgan ishonchi kuchayadi. Har bir mamlakat o’z milliy taraqqiyotida yetishib kelayotgan avlodning ko’plab fazilatlarini qamrab olgan ijtimoiy psixologiyasiga tayanadi. Ijtimoiy tarmoq yutuqlaridan foydalanish barobarida yosh avlodning ma’naviy dunyosini shakllantiruvchi tarbiya metodlaridan foydalanish lozimligi begungi kunningham e’tiborga molik jabhalaridan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.G’oziev. Ontogenez psixologiyasi-Nazariy-eksperimental tahlil. Monografiya-Toshkent: Ўз.Мил. Универ., 2010.-Б 222

2. E.G‘oziev. Umumiy psixologiya-Toshkent: Ўз.Мил. Универ., 2012.-Б 312
3. T.S.Safarov va boshq.“Informatika va axborot texnologiyalari”- O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti,Toshkent-2006. B-37.
4. P.I.Ivanov “Umumiy psixologiya”-Toshkent, “O‘qituvchi”.
5. O.Sodiqova, S.Madaliyeva-“Psixologiya”-Toshkent-2010. B.248.  
<https://kun.uz>.
6. Xosilbekovna, S. F. (2024). SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF INCREASING WOMEN'S LABOR EFFICIENCY ARE RELATED TO THE TOPIC. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(2), 440-443.